

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024 yilning yanvar-iyun oylarida 648,2 mln.AQSH dollarini yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,4 foizni, shu jumladan, eksport 137,7 mln.AQSH dollarini, o'tgan yilga nisbatan 94,6 foizni, import 510,5 mln.AQSH dollarini, o'tgan yilga nisbatan 100,8 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosini minus 372,8 mln. AQSH dollari, shu jumladan MDH davlatlari bilan minus 133,2 mln.AQSH dollari va boshqa davlatlar bilan minus 239,6 mln. AQSH dollari tashkil etdi.

2024 yil yanvar-iyun oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollari)

	yanvar-iyun		2023 yil yanvar-iyungacha nisbatan, foizda
	2023 yil	2024 yil	
Tashqi savdo aylanmasi	652,0	648,2	99,4
MDH mamlakatlari	422,6	271,0	64,1
boshqa xorij mamlakatlari	229,4	377,2	164,4
Eksport	145,5	137,7	94,6
MDH mamlakatlari	82,0	68,9	84,0
boshqa xorij mamlakatlari	63,5	68,8	108,2
Import	506,5	510,5	100,8
MDH mamlakatlari	340,6	202,1	59,3
boshqa xorij mamlakatlari	165,9	308,4	185,9
Saldo	-361,0	-372,8	x
MDH mamlakatlari	-258,6	-133,2	x
boshqa xorij mamlakatlari	-102,4	-239,6	x

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab – quvvatlash, import o‘rmini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori, hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2024 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi



Viloyatimiz rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalarida asosiy ulushlarni Osiyo (65,6 foiz), Yevropa (33,3 foiz) davlatlari egallamoqda va ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 98,9 foizni tashkil etmoqda.

Buxoro viloyatining 2024 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 41,8 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi qolgan, 58,2 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2023 yilda mos ravishda 64,8 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 35,2 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Buxoro viloyatining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2024 yil yanvar-iyun oylariga 271,0 mln. AQSH dollari tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 35,9 foizga kamayishi kuzatilgan. Shundan eksport 16,0 foizga kamaydi va import 40,7 foizga kamaygan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda xamkor davlatlar Rossiya, Afg‘oniston Xitoy, Turkiya, Qozog‘iston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 70,7 foizni tashkil qiladi, importda esa xamkor davlatlar Xitoy, Rossiya, Turkmaniston, Eron, Turkiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 86,1 foizni tashkil qiladi.

MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 97,2 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar orasida esa Xitoy, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Germaniya davlatlarining ulushi 88,6 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar
(2024 yil yanvar–iyun)

(mln. AQSH dollari)

	<i>Eksp^ort</i>	<i>Imp^ort</i>	<i>Tovar aylanmasidagi ulushi, foizda</i>
Xitoy Xalq Respublikasi	13,9	212,7	35,0
Rossiya	42,9	127,6	26,3
Turkmaniston	4,6	46,2	7,8
Turkiya	9,5	23,4	5,1
Eron	2,2	29,8	4,9
Qozog‘iston	8,0	20,7	4,4
Afg‘oniston	23,1	0,1	3,6
Germaniya	2,8	16,5	3,0
Qirg‘iziston	6,4	1,6	1,2
AQSH	5,7	0,6	1,0
Hindiston	4,6	1,6	1,0
Tojikiston	3,8	1,6	0,8
Belorus	0,5	4,3	0,7

Viloyatning 2024 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Rossiya (62,9 foiz), Turkmaniston (18,7 foiz), Qozog‘iston (10,6 foiz), Qirg‘iziston (3,0 foiz) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi (95,2 foiz)ni tashkil qiladi.

MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi

(ming AQSH dollari)

	<i>Ekspart</i>		<i>Import</i>	
	<i>yanvar-iyun</i>		<i>yanvar-iyun</i>	
	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>
Jami	82,0	68,9	340,6	202,1
<i>shu jumladan:</i>				
Rossiya	37,0	42,9	249,3	127,6
Turkmaniston	5,5	4,6	40,8	46,2
Qozog‘iston	11,4	7,9	38,7	20,8
Qirg‘iziston	10,2	6,4	2,2	1,6
Tojikiston	14,1	3,8	0,8	1,6
Belorisiya	-	0,5	7,4	4,3
Ozarbajjon	1,8	1,5	0,8	-
Ukraina	1,7	1,2	0,3	-
Armaniston	0,2	0,1	0,3	-

Viloyatning eksport tarkibida barcha tovarlar va xizmatlar guruhlarini bo'yicha o'sishi kuzatilmoqda. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 64,2 foizga va sanoat tovarlari 5,5 foizga o'sgan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 32,6 foizni mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, 51,5 foizini mashinalar va transport asbob-uskunalar tashkil qiladi.

2024 yil yanvar-iyun oylarida eksport-import tarkibi

(mln. AQSH dollari)


	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>	<i>2023 yil yanvar- iyungacha nisbatan, foizda</i>
Eksport tarkibi	145,5	137,7	94,6
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13,6	7,9	58,2
Ichimliklar va tamaki	2,0	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,2	10,2	164,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	27,1	21,7	80,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	2,6	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,3	2,0	38,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	70,6	74,6	105,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3,0	0,6	19,8
Turli xil tayyor buyumlar	8,6	7,0	81,9
Xizmatlar	9,1	10,3	113,4

	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>	<i>2023 yil yanvar- iyunga nisbatan, foizda</i>
Import tarkibi	506,5	510,5	100,8
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,0	8,7	58,0
Ichimliklar va tamaki	-	0,2	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,5	8,0	63,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	284,0	166,3	58,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	0,8	122,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	48,1	31,8	66,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	25,3	25,8	101,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	113,0	262,9	232,7
Turli xil tayyor buyumlar	8,0	5,9	73,9
Xizmatlar	-	0,2	-

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2024 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,8 foizni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 64,1 foizni tashkil qiladi.


Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2024 yil yanvar- iyun oylarida 50,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 43,6 foizga etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 foizga ko'paydi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(2024 yil; o'tgan yilga nisbatan, foiz)



2024 yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi.

2024 yil yanvar-iyun oylarida MDH amalga oshirilgan eksport tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)



Xizmatlar eksporti hajmi 10,3 mln.AQSH dollarini yoki eksport hajmining 7,5 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,4 foizga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2024 yil yanvar-iyun oylarida jami 9,7 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 5,3 mln.AQSH dollariga eksport qilindi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,8 foiz) tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2024 yil yanvar-iyun oylarida 7,5 ming tonna sabzavotlar 3,0 mln.AQSH dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 1,9 ming tonna meva va rezavorlar 2,1 mln.AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 mln.AQSH dollariga kamaygan.

Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2024 yilning yanvar-iyun oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 5,3 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50,3 foizga kamaydi).

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi yanvar-iyun oylari (ming t.)



**Viloyatda etishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport
geografiyasi**


<i>Davlat nomi</i>	<i>2023 yil yanvar-iyun</i>			<i>2024 yil yanvar- iyun</i>		
	<i>ming tonna</i>	<i>mln. AQSH dollari</i>	<i>ulushi, foiz</i>	<i>ming tonna</i>	<i>mln. AQSH dollari</i>	<i>ulushi, foiz</i>
Qozog‘iston	35,7	8,1	76,4	8,0	3,8	71,7
Rossiya	0,5	0,9	8,5	0,5	0,7	13,2
Boshqa davlatlar	1,5	1,6	15,1	1,2	0,8	15,1

2024 yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 510,5 mln.AQSH dollariga (o‘sish sur‘ati 100,8 foiz) teng bo‘ldi. Import tarkibida eng katta ulush mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (32,6 foiz) va Mashinalar va transport asbob-uskunalar (51,5 foiz) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

Import tarkibi
(2024 yil yanvar-iyun)

	<i>mln.AQSH doll.</i>	<i>2023 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Import	510,5	100,8	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,7	58,0	1,7
Ichimliklar va tamaki	0,2	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	8,0	63,9	1,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	166,3	58,6	32,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,8	122,1	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	31,8	66,0	6,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	25,8	101,9	5,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	262,9	232,7	51,5
Turli xil tayyor buyumlar	5,9	73,9	1,2
Xizmatlar	0,2	-	-

2024 yil yanvar-iyun oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan import tarkibi, (foizda)




- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Boshqalar

MDH va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilgan import tarkibi
(2024 yil yanvar-iyun)

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Import	202,1	100,0	308,4	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,5	3,2	2,2	0,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	-	0,2	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,3	3,1	1,7	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	165,3	81,8	1,0	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,8	0,4	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11,7	5,8	20,1	6,5
Sanoat tovarlar	7,2	3,6	18,6	6,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3,7	1,8	259,2	84,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,5	0,2	5,4	1,7
Xizmatlar	0,2	0,1	0,1	-


2024 yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizga 59 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Qozog'iston va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 476,9 mln.AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 93,4 foizni tashkil qiladi.

Mashina va uskunalar importi dinamikasi
(yanvar-iyun oylari; mln.AQSH dollari)



Mashina va asbob uskunalar importining ortib borishi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning o'zlashtirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilinishi va modernizatsiya qilinishida o'z aksini topadi.

Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan, foiz hisobida)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Tovar – har qanday ko'chma mulk, shu jumladan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk ob'ektlari.

Tovarlar eksporti – agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Reeksport – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

Tovarlar importi – tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Reimport – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko'rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat – tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki etarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar etarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26 - moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili – yuklab jo'natish paytida tovar etkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati – shartnoma valyutasidan qat'iy nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo'yicha tovarlar qiymati.

SIF (qiymat, sug'urtalash, fraxt) – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'urtalash hamda import qiluvchi mamlakat portigacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

SIP (fraxtG'tashish va sug'urtalash) – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'urtalash hamda import qiluvchi mamlakatning chegarasidagi belgilangan joygacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

FOB (bortda erkin) – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni kema bortigacha etkazib berish va yuklash xarajatlari kiritiladi.

DAF (chegaragacha etkazib berish) – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni belgilangan joygacha yoki eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi joygacha yoxud qo'shni mamlakat chegarasigacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

Xizmatlar (ishlar) eksporti — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).